

Turli xil kuygan yara va chuqur yaralarni davolovchi bioeruvchan implant-plyonkalar

O'zR FA Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti tomonidan ishlab chiqilgan "Nanoderm" - turli xil kuygan yara va chuqur yaralarni davolovchi bakteritsid xossali, bioeruvchan implant-plyonkalar hisoblanadi.

"Nanoderm" plyonkasi kuygan yaralarga qo'llanilgan vaqt davomida bosqichma-bosqich ta'sirga ega. Plyonka tarkibidagi biologik faol modda eritma, gel shaklidagi dori vositasiga nisbatan uzoqroq vaqt ta'sir etadi. Kuyganlik darajasiga qarab bir necha marotaba qo'llash mumkin.

Ilk bor nanotexnologiya prinsiplarni qo'llagan holda kumush nanozarralari bioeruvchan, bioparchalanuvchan polimer plyonkalarida shakllantirildi.



"Nanoderm" plyonkasi keng ta'sirga ega bo'lib, mikroorganizmlarga qarshi faollik, kuygan to'qimalarni regeneratsiyalovchi xossalarni namoyon etadi. "Nanoderm" dori plyonkasi yuqori sorbtion xossani namoyon etib, kuygan yaralar yuzasidagi hosil bo'lgan yiringlarni o'ziga shimib oladi va mikroorganizmlarga nisbatan uzoq ta'sirlashish xossasiga ega. Plyonka kuygan yaralar yuzasidan olib tashlanmaydi, vaqt o'tishi bilan so'rilib ketadi, bu o'z navbatida bakteriyalarga qarshi davolash samaradorligini oshiradi.